

## OILA HUQUQIDA ER VA XOTINNING UMUMIY BIRGALIKDAGI MOL- MULKI

**Madaminova Dilafruz**

*O‘zbekiston Milliy universiteti*

*“Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada oila huquqi instituti va uning mohiyati, oilada er va xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulki va nikoh munosabatlarida vujudga keladigan nizoli masalalarda ushbu mol-mulkni bo‘lish asoslari chuqur tahlil ostiga olingan. Shuningdek, nikoh shartnomasida er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo‘lg‘usi mol-mulkiga nisbatan ham kiritishi mumkin bo‘lgan talablar o‘rganilgan. Mavzu doirasida milliy qonunchiligimiz, qonunchilikni qo‘llash amaliyoti va o‘quv ilmiy adabiyotlardan foydalanilib, ularga maqsadli havolalar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Oila huquqi, nikoh shartnomasi, mulkiy va nomulkiy munosabatlar, umumiy mol-mulk, shartnoma shartlari, birgalikdagi mol-mulkni bo‘lish.*

### JOINT PROPERTY OF SPOUSES IN FAMILY LAW

**Annotation:** *This article provides an in-depth analysis of the institution of family law and its essence, the joint property of spouses in the family, and the basis for division of this property in disputed matters arising from marital relations. Additionally, the article examines the requirements that spouses can include in the marriage contract regarding both their existing property and future property. Within the scope of the topic, national legislation, law enforcement practice, and educational scientific literature were used with targeted references.*

**Keywords:** *Family law, marriage contract, property and non-property relations, joint property, contract terms, division of joint property.*

### СОВМЕСТНОЕ ИМУЩЕСТВО СУПРУГОВ В СЕМЕЙНОМ ПРАВЕ

**Аннотация:** *В данной статье проводится глубокий анализ института семейного права и его сущности, совместного имущества супругов в семье и основания раздела этого имущества в спорных вопросах, возникающих из брачных отношений. Кроме того, в статье рассматриваются требования, которые супруги могут включить в брачный договор как в отношении существующего имущества, так и будущего имущества. В рамках темы использованы национальное законодательство, правоприменительная практика и учебная научная литература с целевыми ссылками.*

**Ключевые слова:** *Семейное право, брачный договор, имущественные и неимущественные отношения, совместное имущество, условия договора, раздел совместного имущества.*

## KIRISH

Oila huquqi eng katta huquq sohaslaridan biri hisoblanib, nikoh ushbu huquq sohasining eng katta instituti hisoblanadi. Mamlakatimizda oila huquq sohasidagi asosiy shartnoma bu nikoh shartnomasi hisoblanadi. Nikoh shartnomasi oila quruvchi subyektlar o'rtasidagi jamiyati mulkiy va nomulkiy munosabatlarni belgilab beradi. Ushbu tushunchaga asos qilib davlatimiz bosh qomusida oila davlat va jamiyat muhofazasida ekanligi nazarda tutilgan bo'lsa, Oila qonunchiligida esa oila a'zolarining shaxsiy nomulkiy va mulkiy majburiyatlari belgilanib o'tilgan. Nikoh shartnomasi nikohlanuvchi shaxslarning, ya'ni er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi kelishuvdir.

Endilikda qonuniy (rasmiy) mulk tartibi bilan birga mulkning shartnomaviy tartibiga ham o'rin berildi. Bunda er-xotin o'zlarining mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoki er va xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o'rnatishga haqli ekanligi belgilandi.

Demokratik davlatlarda nikoh shartnomasini tuzish odatiy hayot tusiga aylanib ulgiran. Ammo bizning urf – odat va an'analarga tayangan xalqimizda nikoh shartnomasi tushunchasi bir muncha qo'polroq tarzda tushuniladi. Misol uchun yosh kelin-kuyov tomonlaridan biri ikkinchisiga nikoh shartnomasini tuzishni taklif etsa, ushbu shaxs hali oila qurmasidan ajralishni o'ylab o'rtadagi mol-mulk taqsimotini o'ylab qolibdilar degan fikr uyg'onishi tabiiy hol. Ammo nikoh shartnomasini tuzish ushbu holatni olib kelishi uchun emas, balki, kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatni oldini olish uchun xizmat qilishini har birimiz bilib olganimiz yaxshi.

Er va xotinning mol-mulki huquqiy tartibini belgilaydigan nikoh shartnomasining shartlari uning mazmunini tashkil qiladi. Nikoh shartnomasi shartlarida tomonlarning nikohda va u bekor bo'lganida er va xotin mulkiy munosabatlarining muhim jihatlari bo'yicha nizomlar qayd etiladi. Qoidaga ko'ra, nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin. Nikoh shartnomasiga er va xotin quyidagi qoidalarni kiritishga haqlidirlar:

- o'zaro moddiy ta'minot berish;
- oila xarajatlarini taqsimlash;
- bir-birining daromadida ishtirok etish;
- boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish;
- birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish
- bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olish;
- nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga
- beriladigan mol-mulkni aniqlab olish;
- er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar.

Mamlakatimizda azaldan oila huquq sohasini ma'lum bir normalar bilan tartibga solinganini bilamiz. Hozirda oila huquq sohasini Oila kodeksi tartibga soladi va ushbu kodeks turmushda mustaqil er-xotinning tengligiga va ular hayotida boshqa qarindoshlarning ahamiyati kamligiga asoslangan zamonaviy oila modeliga qurilgan.

Oila huquqida er va xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulki Oila kodeksining 5-bob, 23-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo‘lajak er-xotinning umumiy mablag‘lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari jumlasiga (er va xotinning umumiy mol-mulkgiga) er va xotin har birining mehnat faoliyatidan, tadbirkorlik faoliyatidan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlari, ular tomonidan olingan pensiyalar, nafaqalar, shuningdek maxsus maqsadga mo‘ljallanmagan boshqa pul to‘lovlari kiradi. Boshqa pul to‘lovlari sifatida moddiy yordam summasi, mayib bo‘lish yoki salomatligiga boshqacha zarar yetkazish oqibatida mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash tarzida to‘langan summalar va boshqalarni keltirish mumkin. Er va xotinning umumiy daromadlari hisobiga olingan ko‘char va ko‘chmas ashyolar, qimmatli qog‘ozlari, paylari, omonatlari, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan kapitaldagi ulushlari hamda er va xotinning nikoh davomida orttirgan boshqa har qanday mol-mulklari, ular er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilgan yoxud pul mablag‘lari kimning nomiga yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo‘lishidan qat‘i nazar, ular ham er va xotinning umumiy mol-mulki hisoblanadi.

Er va xotindan biri uy-ro‘zg‘or ishlarini yuritish, bolalarni parvarish qilish bilan band bo‘lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo‘lmagan taqdirda ham er va xotin umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo‘ladi<sup>31</sup>.

Nikoh davomida er-xotinning umumiy mulki, ulardan har birining mol-mulki yoxud er va xotindan birining mehnati hisobiga mol-mulkning qiymati ancha oshishiga olib kelgan mablag‘lar (kapital ta‘mirlash, qayta qurish, qayta jihozlash va boshqalar) qo‘shilgani aniqlansa, er yoki xotindan har birining mol-mulki ularning birgalikdagi mulki deb topilishi mumkin.

Er va xotin ularning birgalikdagi umumiy mulki bo‘lgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishda teng huquqlarga egadir. Er va xotindan birining umumiy mol-mulkini tasarruf etishi bilan bog‘liq bitim tuzilganda bu harakat boshqasining roziligiga ko‘ra amalga oshirilayotganligini anglatadi.

Er va xotindan birining umumiy mol-mulkini tasarruf etish yuzasidan amalga oshirgan bitimi boshqasining bu bitimni tuzishiga roziligi bildirmagan hollarda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Er yoki xotin o‘zining nomiga rasmiylashtirgan umumiy ko‘chmas mol mulki sotish bo‘yicha bitim tuzishi uchun bir tomon ikkinchi tomonning notarial tartibda tasdiqlangan roziligini olishi lozim. Ushbu turdagi bitimlarni tuzish davomida notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinmagan er yoki xotin ushbu bitim tuzilganligini bilgan va bilishi lozim bo‘lgan paytdan boshlab bir yil davomida ushbu bitimni sud tartibida haqiqiy emas deb topish bo‘yicha murojaat qilishi mumkin.

<sup>31</sup> Davlat va huquq asoslari: O‘rta ta‘lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun darslik / N. Ismatova, O. Karimova. – Birinchi nashr. – Toshkent.: Yangiyul Poligraph Service, 2018. – 144b.

Shuningdek, er va xotin umumiy mol-mulkni bo'lish huquqiga ham ega. Er va xotinning umumiy mol-mulki ular nikohda turgan davrda bo'lingan taqdirda, er va xotin molmulkinging bo'linmay qolgan qismi, shuningdek, er va xotin tomonidan ular nikohda turgan davrda orttirilgan mol-mulk keyinchalik ularning birgalikdagi umumiy mulkini tashkil qiladi.

Er va xotinning umumiy mol mulkini bo'lish tartibi quyidagilardan iborat. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish er va xotindan birining talabiga ko'ra, ular nikohda bo'lgan davrda ham, nikohdan ajralishgandan keyin ham, shuningdek kreditor er va xotindan birining umumiy mol-mulkdagi ulushiga undiruvni qaratish uchun umumiy mol-mulkni bo'lish talabi bilan arz qilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Er va xotinning umumiy mol-mulki er va xotin o'rtasida o'zaro kelishuv asosida bo'lib olinishi mumkin. Er va xotinning xohishi bilan ularning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi o'zaro kelishuvi notarial tartibda tasdiqlanishi mumkin. Nizo tug'ilgan hollarda er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish, shuningdek er va xotinning bu mol-mulkdagi ulushini aniqlash sud tartibida amalga oshiriladi.

**Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish jarayonida quyidagilar inobatga olinmaydi:**

- Voyaga yetmagan bolalar ehtiyojini qondirish uchun olingan buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal, maktab va sport jihozlari, musiqa asboblari, bolalar kutubxonasi va boshqalar) bo'linmaydi hamda bolalar er va xotindan qaysi biri bilan yashasa, unga kompensatsiyasiz beriladi.

- Er va xotinning umumiy mol-mulki hisobidan o'rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo'yilgan omonatlar o'sha bolalarga tegishli hisoblanib, er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish paytida e'tiborga olinmaydi.

Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan uch yillik da'vo muddati qo'llaniladi.

Umumiy mol-mulkni bo'lishda, er yoki xotindan biri tomonidan er yoki xotinning erkiga zid ravishda va oila manfaatiga mos bo'lmagan tarzda sarflangan mol-mulk yoxud uning qiymati hisobga olinadi.

Agar er yoki xotin umumiy mol-mulkni yashirgan, unga zarar yetkazgan yoki yo'q qilgan bo'lsa, sud oila va fuqarolik huquqining umumiy tamoyillari (huquq o'xshashligi), shuningdek halollik va adolat tamoyillaridan kelib chiqib, mol-mulkni bo'lishda ushbu mol-mulkni yoki uning qiymatini hisobga olishi mumkin.<sup>32</sup>

Xulosa sifatida shuni ayta olamizki, oilaviy huquqiy munosabatlarda nikoh shartnomasi juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Chuni taraflar o'rtasida nikoh shartnomasi tuzilib, unda er-xotinning huquq va majburiyatlari, mol-mulkdagi ulushlari va oilaviy huquqiy munosabatlarning asosi mujassamlashgan. Nikoh shartnomasida er-xotinning mol-mulkka nisbatan ulushlari belgilanishi kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatni oldini olish uchun xizmat qiladi. Oilaviy munosabatlarda yuqorida

<sup>32</sup> 3-coh 20.02.2023. Sudlar tomonidan er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish haqidagi ishlarni ko'rishda qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida oliy sud plenumining qarori.

ta'kidlanib o'tilganidek, nikohdan keyingi to'plangan mol-mulk umumiy mulk hisoblanadi. Bundan tashqari majburiyatlar ham teng taqsimlanadi. Bu esa, o'z navbatida oila qonunchiligining tenglik asosida amalga oshirilishidan darak beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 30.04.1998. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi <https://lex.uz/docs/-104720>
2. Davlat va huquq asoslari: O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik / N. Ismatova, O. Karimova. – Birinchi nashr. – Toshkent.: Yangiyul Poligraph Service, 2018. – 144b.
3. 3-сон 20.02.2023. Sudlar tomonidan er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish haqidagi ishlarni ko'rishda qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida oliy sud plenumining qarori. <https://lex.uz/docs/-6402541>
4. Er va xotinning umumiy mulki deganda nima tushuniladi? <https://kun.uz/54993695#!>
5. nikoh shartnomasi - Академия Google [https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=nikoh+shartnomasi&oq=#d=gs\\_qabs&t=1730202219674&u=%23p%3Dj0hvQAgZyvYJ](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=nikoh+shartnomasi&oq=#d=gs_qabs&t=1730202219674&u=%23p%3Dj0hvQAgZyvYJ)
6. Bahromjon og'li, R. A. (2023). OZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VASIYATNOMA BOYICHA VORISLIK VA QONUNIY VORISLIKNING AMALIYOTDAGI MAVJUD MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH. *Научный Фокус*, 1(5), 197-200.